



INTERAKTIV USULLAR- O'QUVCHILAR QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI

Yunusova Nabiraxon Raxmatovna

Farg'ona viloyati.

Quva tumani 48- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-25>

ARTICLE INFO

Received: 31st January 2023

Accepted: 09th February 2023

Online: 10th February 2023

KEY WORDS

Interaktiv usullar, zamonaviy metodlar, mantiqiy-ijodiy tafakkur, interaktivlik

ABSTRACT

Ushbu maqola maktab o'quvchilarini interaktiv usullar orqali qobiliyatlarini rivojlantirish, darslarda zamonaviy metodlardan foydalanib qiziqarli tarzda tashkil etish to'grisida fikr yuritiladi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-



bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlarga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat. Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. e'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda xech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda talim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir. Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi "interaktiv" metod bo'lib, hozirda uning chala tarjimasini ko'p hollarda "interfaol" deb yuritiladi, "interaktiv" atamasi aslida inglizcha "interaktiv" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro tasirlashish" manosi bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o'zaro baxs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o'quv qo'llanmalarini varaqlaganimizda "o'qitishning interaktiv metodlari" termini qo'llanishini ham guvoni bo'ldik. Talim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganingiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidir. Interaktiv ta'lim - faol o'qitish uslubining turlaridan biri. Interaktiv o'rganish bilan o'zaro munosabat nafaqat o'qituvchi va talaba o'rtasida, balki barcha tinglovchilar bilan aloqa qilish va birgalikda ishlash (yoki guruhlar) o'rtasida amalga oshiriladi. Interaktiv ta'lim usullari har doim shovqin, hamkorlik, qidirish, muloqot, odamlar yoki odamlar o'rtasidagi o'yin va axborot muhiti hisoblanadi. O'qituvchining mashg'ulotlarda faol va interaktiv usullarini qo'llash orqali o'qituvchi tomonidan o'rganilgan materialning miqdori 90 foizga etadi. Interaktiv ta'lim vositalari; Interaktiv usullarni qo'llash oddiy oddiy ko'rgazmalar, plakatlar, xaritalar, modellar va boshqalar bilan boshlandi. Bugungi kunda interaktiv ta'limning zamonaviy texnologiyalari eng so'nggi jihozlarni o'z ichiga oladi: interfaol taxtalar ; planshetlar; kompyuter simulyatorlari; virtual modellar; plazma panel proyektorlar ; noutbuklar va boshqalar. O'qitish jarayonida interaktivlik quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi: taqdimot materialining taqdimotini motilliyini kiritish bilan interaktiv muloqot qilish uchun qoldirish; kartada diagrammalar, formulalar va diagrammalar yaratish kerak bo'lmagan vaqtni tejash; O'rganilgan materialni topshirish samaradorligini oshirish, chunki interfaol ta'lim vositalari talabaning turli hissiy tizimlarini o'z ichiga oladi; guruh ishlarini yoki o'yinlarni tashkil etishning qulayligi, tomoshabinlarni to'liq jalb qilish; o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida chuqur aloqani o'rnatish, jamoa ichidagi iqlimni yaxshilash. Muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun



ta'lim muassasasining vazifasi - shaxsning maksimal muvaffaqiyatga erishish uchun sharoit yaratish. Interaktiv ta'limni amalga oshirish uchun psixologik va pedagogik shartlar quyidagilardan iborat: sinfda ijobiy psixologik muhit, bir-biriga yordam berish istagi; tashabbusni rag'batlantirish; har bir talabaga individual yondashuv; barcha kerakli o'quv muassasalarining mavjudligi. Interaktiv ta'lim usullarini tasniflash Interaktiv ta'lim texnologiyalari individual va guruhga bo'linadi. Jismoniy shaxslar o'qitish va amaliy mashg'ulotlarni bajarishni o'z ichiga oladi. Guruhdagi interfaol usullar uchta kichik guruhga bo'linadi: munozarali munozaralar, munozaralar, miya bo'roni, amaliy tadqiqotlar, vaziyatni tahlil qilish, loyihalarni ishlab chiqish.

Bugungi kunga kelib interaktiv metodlarning ko'plab turlari aniqlangan.

Masalan:

1. Aqliy hujum.
2. O'yinli o'qitish texnologiyasi.
3. Jamoaviy o'qitish usuli.
4. Kichik guruhlarda ishlash metodi.
5. Tarmoqlar metodlari

Kabi ko'plab metodlar mavjud. Shulardan bir nechasi bilan tanishamiz. „Archa yasash “ bo'yicha. Bu usuldan dars mavzusiga qarab turli o'rinlarda foydalanish mumkin. Bunda har bir geometrik shakllarning orqa tarafiga kichik cho'ntakchalar qilib, unga matematika darsi bo'lsa, darslikdagi o'tilishi lozim bo'lgan misollar yozib qo'yiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanidan esa o'rganilayotgan mavzu bo'yicha „Alifbo nima? Unli harflar nechta? Harf nima? kabi savollar joylashtirish mumkin. Ushbu shakllar o'quvchilarga tarqatiladi. O'quvchilar to'g'ri javob berishsa, shakllarini magnit doskaga joylashtirib yig'iladi. Agar tarqatilgan shakllarining birontasi to'g'ri javob berishmagan bo'lsa, o'sha shakl yopishtirilmaydi, archada bo'shliq hosil bo'ladi. Javob bera olmagan o'quvchi esa archa yasashni yakuniga yetkaza olmagan uchun kelgusi darsda albatta tayyorlab keladi, o'z - o'zidan dars tayyorlashga rag'bat uyg'onadi.

Keyingi metodimiz „Besh barmoq“ metodi:

Oq listga besh barmoqning rasmini chizib, qirqib olamiz. Qirqib olingan barmoq shakli har bir o'quvchining qo'lida bo'ladi. O'qituvchi o'tilgan darsning mustahkamlash qismida foydalanadi. Savollarni tayyorlab keladi. O'quvchilar javoblarni barmoqlarga yozadilar. 1-savolning javobini bosh barmoq, 2-savolning javobi ikkinchi barmoqqa yozib boriladi. Shu tariqa javoblar qolgan barmoqlarga yoziladi. So'ngra o'qituvchi javoblarni o'qib beradi. Agar o'qilganda hamma javoblar to'g'ri bo'lsa besh barmoq o'z holatida qoladi. Agar xato qilgan bo'lsa barmoq buklab qo'yiladi. Shu tariqa baholar qo'yiladi. Xato qilmagan bo'lsa 5 hisoblanadi. Agar bitta xato qilingan bo'lsa 4 hisoblanadi. 2 ta xato qilgan bo'lsa 3 hisoblanadi. Shu tarzda o'quvchilar o'zini o'zi baholaydi.

References:

1. Interfaol ta'lim usullari - o'quv qo'llanma. Sh.K.Shayakubov.R.X.Ayupov.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: "Moliya", 2003 y. – 171 b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. "Nasaf", 2000 y.-80 b. 5. Far